O'ZBEKISTON
KASABA UYUSHMALARI
FEDERATSIYASI

ФЕДЕРАЦИЯ
ПРОФСОЮЗОВ
УЗБЕКИСТАНА

O'zbekiston Respublikasi, 100029, Toshkent shahar, Buxoro ko'chasi, 24-uy
tel.: (0-371) 252-21-18, faks: (0-371) 256-47-97, E-mail: info@sfp.uz, www.kasaba.uz, sfpu@exat.uz

№ БМ – 05/1033

«19» июль 2024 yil

**Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi a'zolari**

*(ro'yxat asosida)*

Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun Byurosi tomonidan XMTning "O'zbekistonda mehnat inspeksiyasi va mehnatni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish" loyihasi bo'yicha Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi majlisining 2024 yil 2 iyuldagi 8-sonli bayonnomasi ma'lumot va ijro uchun yo'llanmoqda.

Ilova: 2 varaqda.

O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasi raisi o'rinbosari,
Uch tomonlama komissiya a'zosi — B.Maxmadaliyev

Ijrochi: M.Isayev
Tel.: 71-2567086

**Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi a'zolari**

| | |
|---|---|
| Musaev Behzod Anvarovich | - O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri |
| Fazilkarimov Otabek Rustamovich | - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining o'rinbosari |
| Meliev Xudoyor Xurramovich | - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining o'rinbosari |
| Basitxanova Elmira Irkinovna | - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining o'rinbosari |
| Ikramov Agzam Anvardjonovich | - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi raisining o'rinbosari |
| Abdukarimov Abdusamat Abdusalom o'g'li | - O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi boshlig'i |
| Tursunboev O'tkir Unarovich | - O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi inspektori |
| Rafikov Qudratilla Mirsagatovich | - O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi |
| Maxmadaliev Baxtiyor Xasanovich | - O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisining o'rinbosari |
| Bedilov Ravshan Melsovich | - O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi |
| Alimdjanova Nigora Adxamovna | - O'zbekiston kimyo va farmasevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi |
| Raxmatov Isroil Qurbanovich | - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi |
| Gaibnazarova Nodira Bahodirjanovna | - O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi apparatining mehnatni muhofaza qilish bo'limi mudiri |
| Isayev Maxmudjon Nimatovich | - O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi apparatining mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bo'limi mudiri |
| Xaydarov Ilxom O'tkurovich | - O'zbekiston ish beruvchilari Konfederatsiyasi raisi |
| Vaxobov Davron Abdujalolovich | - O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi |
| Xaitov Aktam Axmatovich | - O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi |
| Maxmudova Gulnora G'ulomnazarovna | - "Tadbirkor ayol" O'zbekiston Ishbilarmon ayollar uyushmasi raisi |
| Abdullaev Ulug'bek Toxirovich | - O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi raisi |
| Xamidov Baxtiyor Sultanovich | - O'zbekiston banklar assosiasiyasi bosh direktori |
| Xursanov Abdulla Xolmuradovich | - "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ boshqaruvi raisi |
| Margishvili Eka Sergeevna | - O'zbekiston ish beruvchilari Konfederatsiyasi Ijrochi direktori |

**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**
Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича
республика уч томонлама комиссияси
раиси ________ Қ.Рафиков
2024 йил «02» июль

**Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссияси мажлисининг 8-сонли**

**БАЁННОМАСИ**

2024 йил «02» июль — Тошкент ш.

| | | |
|---|---|---|
| **Раислик қилувчи**: | - Қ.Рафиков | - Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси раиси, комиссия раиси |
| **Иштирок этганлар**: | | - Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссияси аъзолари (рўйхат бўйича) |

**КУН ТАРТИБИ:**

**I. Халқаро меҳнат ташкилотининг “Ўзбекистонда меҳнат инспекцияси ва меҳнатни муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш” лойиҳасига оид ҳужжатлар тўғрисида**

(Қ.Рафиков, Б.Мусаев, И.Хайдаров ва бошқалар)

Халқаро меҳнат ташкилотининг (ХМТ) Шарқий Европа ва Марказий Осиё мамлакатлари учун Бюроси томонидан ХМТнинг “Ўзбекистонда меҳнат инспекцияси ва меҳнатни муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш” лойиҳасига оид ҳужжатлар тақдим этилди

Шунингдек, Бюро томонидан лойиҳага оид ҳужжатларни Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссияси мажлисида кўриб чиқиб, маъқуллаш сўралган.

Юқоридагиларга асосан масалани Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссиясининг сўров йўли билан ўтказиладиган мажлисида кўриб чиқиш юзасидан комиссияси котибияти томонидан комиссия аъзоларига тегишли ҳужжат нусхаси илова қилинган ҳолда хат юборилди ва уларнинг фикрлари олинди.

Комиссия аъзолари томонидан билдирилган фикр ва мулоҳазалар ҳамда таклифларни инобатга олиб **Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссияси қарор қилади**:

**1.** ХМТнинг Шарқий Европа ва Марказий Осиё мамлакатлари учун Бюросининг 2024 йил 24 июнда 214-сонли хати маълумот учун қабул қилинсин.

**2.** ХМТнинг “Ўзбекистонда меҳнат инспекцияси ва меҳнатни муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш” лойиҳасига оид ҳужжатлар маъқуллансин ва лойиҳа расман ишга тушган деб ҳисоблансин.

**3.** ХМТнинг Шарқий Европа ва Марказий Осиё мамлакатлари учун Бюросидан “Inditex”, “Bridge” ва бошқа лойиҳаларга оид ҳужжатларни ҳам шу йўсинда Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссиясида маъқуллаш учун юбориш сўралсин.

**4.** Мазкур баён бажарилиши бўйича назорат уч томонлама комиссия котибияти зиммасига юклатилсин.

Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссияси ҳамраиси
__________ Б.Мусаев

Ижтимоий-меҳнат масалалари бўйича республика уч томонлама комиссияси ҳамраиси
__________ И.Хайдаров